

23-§. Amaliy mashg'ulot


Yevropa siyosiy xaritasini o'rganish

1. Ushbu davlatlarga mos ma'lumotlarni toping va daftaringizga belgilang.

I. Avstriya II. Portugaliya III. Islandiya IV. Ruminiya

a) Ispaniya bilan chegaradosh; b) Sharqiy Yevropada joylashgan; d) ichki kontinental davlat; e) poytaxti Reykyavik shahri; f) Qora dengiz qirg'oqlarini yuvadi; g) Janubiy Yevropada joylashgan; h) Federativ tuzilishga ega; i) orol davlat; j) G'arbiy Yevropada joylashgan; k) dengizbo'yi kontinental davlat; l) yarimorol davlati; m) Shimoliy Yevropada joylashgan.

2. Quyidagi xaritalarda qaysi davlatlar aks ettirilganini toping va berilgan variantlar orasidan ushbu davlatlar poytaxtini tanlang.



A) Dublin

B) Sofiya

D) Berlin

E) Oslo

F) Praga

G) Rim

H) Parij

I) Afina

3. Darslik ilovasidagi ma'lumotlardan foydalanib Yevropadagi maydoni 100 ming km² dan yirik davlatlar nomini daftaringizga yozib oling.

4. Darslik va jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib berilgan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

1	Shimoliy Makedoniya dengizbo'yi kontinental davlatlar guruhiga kiradi.
2	Daniya quruqlikda faqat Germaniya bilan chegaradosh.
3	Gretsiya Janubiy Yevropada joylashgan.
4	Yevropada faqat Buyuk Britaniya, Islandiya va Irlandiya orol davlatlar hisoblanadi.
5	Italiya Pireney yarimorolida joylashgan.
6	Belgiya poytaxti — Bryussel shahri.
7	Shvetsiya parlamentar respublika hisoblanadi.
8	Yevropa subregionlari ichida maydoni eng yirigi bu — Sharqiy Yevropa.
9	Bosniya va Gersegovina Yevropadagi federativ davlatlardan biri.
10	Fransiya ikkita okean akvatoriyasida joylashgan.

5. Quyidagi harflar bilan belgilangan Yevropadagi “mitti” davlatlar nomini toping.

